



## ARTICLE INFO

Received: 14<sup>th</sup> December 2022

Accepted: 24<sup>th</sup> December 2022

Online: 25<sup>th</sup> December 2022

## KEY WORDS

*Budjet qoidalari, qarz qoidalari, budjet balansi qoidalari, tarkibiy balans qoidalari, daromad qoidalari, xarajat qoidalari, davlat qarzi, budjet defitsiti, budjet balansi.*

## KIRISH

Mamlakatimizda budjet barqarorligi ta'minlash uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Davlat budjeti shaffofligini ta'minlash, makroiqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish, davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish joriy etiladigan budjet qoidalari samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Budjet qoidalarini samarali joriy etish asosida davlat xarajatlarini optimallashtirish va to'g'ri maqsadlarga yo'naltirish, budjet defitsiti hamda davlat qarzining muqobil darajasini ta'minlash, mamlakatdagi investitsion muhitni yaxshilash, umuman olganda, iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin. Ammo buning uchun budjet qoidalarini muntazam ravishda takomillashtirish, ularni qo'llayotganda iqtisodiyotdagi sikllar va boshqa qator omillarni inobatga olish lozim.

## ADABIYOTLAR SHARHI

## MAMLAKATIMIZDA MAKROIQTISODIY BARQARORLASHTIRISH SIYOSATINI YURGIZISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

To'ychiyeva Begoyim

Fag'ona davlat universiteti 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7482782>

## ABSTRACT

*Ushbu tadqiqot ishida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budjet qoidalarining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar fikri o'rganilgan bo'lib, budjet qoidalarining mohiyati, o'ziga hos xususiyatlari hamda uning makroiqtisodiy shart-sharoitlarga ta'siri yoritib berilgan. Tadqiqot ishining asosiy maqsadi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budjet qoidalarining o'ziga hos xususiyatlarining ilmiy asoslarini yoritishdan iborat.*

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budjet qoidalarining o'ziga hos xususiyatlari haqidagi bahslar iqtisodchi olimlar uchun yuqori qiziqish uyg'otgan mavzulardan biri hisoblanib, bu borada xorijiy mamlakat olimlari tomonidan ko'plab muhim mulohazalar aytib o'tilgan. Xususan, D.V.Skrypnikning fikriga ko'ra, budjet qoidasini 2 xil ma'noda ifoda etsa bo'ladi. Keng ma'noda qoidalar va tartibga solish amaliyoti majmui sifatida tushunilib, unga muvofiq budjet tuziladi, qabul qilinadi va amalga oshiriladi. Qisqa ma'noda esa budjet qoidalari ma'lum fiskal ko'rsatkichlar (budjet taqchilligi, qarz darajasi, xarajatlar va daromadlar) bo'yicha rasman o'rnatilgan cheklovlar hisoblanadi. Shuningdek, olim tomonidan panelli regressiya tenglamasi bo'yicha budjet qoidalarining iqtisodiy o'sishga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri davlat boshqaruvi samaradorligi orqali aniqlangan. Xulosa shuki, agar hukumat yuqori darajadagi samaradorlikka ega bo'lsa, budjet



qoidalarining joriy etilishi iqtisodiy o'sishga ortiqcha bosim bermaydi [1].

**TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Mamlakat budjet siyosatidagi eng dolzarb vazifa manfaatlar muvozanati nuqtai nazaridan (budjet barqarorligi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni moliyalashtirish o'rtasidagi muvozanat) optimal xarajatlar darajasini (chegaraviy qiymatini) ta'minlash hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilishning an'anaviy vositalari qatoriga ham alohida budjet parametrlari bo'yicha

miqdoriy cheklovlarni belgilaydigan budjet qoidalar kiradi [2].

Budjet qoidalar - bu qoida tariqasida budjet-soliq parametrlariga o'rnatiladigan chegaraviy me'yorlar hisoblanadi. Bunday qoidalar kiritilishi budjet xarajatlarining budjet daromadlaridan oshib ketishini, davlat qarzi yuqori sur'atlarda o'sishini oldini olib, budjet hamda makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi. Budjet qoidalar asosan quyidagilardan iborat:

**1-jadval**

**Budjet qoidalarining asosiy turlari**

Qoida turi	Qoida me'yorining belgilanish shakli	Qoidaning asosiy maqsadi
<b>Qarz qoidalar</b>	davlat qarzini YaIMga nisbatan foiz ko'rinishida aniq chegarasi yoki maqsadi sifatida belgilanadi	Davlat qarzining barqaror darajasini saqlash (davlat qarzining iqtisodiy o'sish sur'atiga salbiy ta'sirini oldini olish yoki uni kamaytirish)
<b>Budjet balansi qoidalar (shu jumladan, tarkibiy balans qoidalar)</b>	YaIMga nisbatan foiz ko'rinishida aniq chegara yoki maqsad sifatida belgilanadi	budjet muvozanatini ta'minlash (nol defitsit), budjet taqchilligini belgilangan chegara qiymatidan oshirmaslik hamda minimum darajada o'rnatilgan miqdordagi budjet profitsitiga erishish.
<b>Xarajat qoidalar</b>	absolyut raqamlarda, o'sish sur'atlari bo'yicha yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan foizda umumiy, asosiy yoki joriy budjet xarajatlari bo'yicha doimiy chegaralar sifatida belgilanadi	budjet xarajatlarining chegaraviy qiymatini o'rnatish orqali to'g'ridan-to'g'ri hukumat tomonidan foydalaniladigan davlat resurslari miqdorini belgilab berish hamda o'zboshimchalik bilan moliyaviy rag'batlantirishga yo'l qo'ymaslik.
<b>Daromad qoidalar</b>	budjet daromadi hajmining yuqori yoki quyi chegarasi sifatida belgilanadi	budjet tushumining tezlashishiga va/yoki haddan tashqari soliq yukining oldini olishga hamda to'g'ridan-to'g'ri hukumat hajmini (government size) cheklashga qaratilgan bo'lishi

*Manba: Xorijiy mamlakat olimlarining ilmiy izlanishlarini asosida muallif tomonidan tuzildi.*

Mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash maqsadida budjet qoidalarini



joriy etishdan ko'zlangan maqsadlar qo'yidagilardan iborat bo'lishi kerak:

budjet defitsiti hajmini cheklash va qarz darajasi dinamikasini nazorat qilish orqali mamlakatlarning qarz barqarorligini ta'minlash;

– iqtisodiy rivojlanish davriyligini (siklligi) hamda budjetning resurslarga bog'liqligi muhimligini inobatga olgan holda muvozanatli budjetni (budjet defitsiti nolga teng bo'lgan) ta'minlash;

– xarajatlarning asossiz o'sishining oldini olish;

– ortiqcha soliq yukini bartaraf etish, shu bilan birga, resurslardan olinadigan daromadlardan samarali foydalanishni rag'batlantirish hisobalanadi.

## **XULOSA VA MUNOZARA**

Istiqbolda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror o'sishini ta'minlash maqsadida budjet qoidalari va uning o'ziga hos xususiyatlari bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

– O'zbekiston iqtisodiyotida budjet qoidalarini joriy etish uchun ma'sul tashkilotlar, eng avvalo, Moliya Vazirligi, Markaziy bank, xamda ular faoliyatini muvofiqlashtiruvchi tashkilot bo'lib Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, va boshqa moliyaviy tashkilotlarning birgalikda kelishgan xolda faoliyat olib borilishi talab etiladi;

– bundan tashqari, Markaziy bank pul-kredit siyosatini yuqori sur'atlarda mustaqil olib borishi kerak bo'ladi, bunga sabab budjet-soliq siyosatining pul-kredit siyosati ustidan dominantlik qilmasligi hisoblanadi. Aks holda, joriy etilgan budjet qoidasi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydigan bilvosita instrumentlik xususiyatini yo'qotadi;

mamlakatimizda ham ikki yoki undan ortiq budjet qoidalaridan kombinatsiyasidan foydalanish zarur. Bu mamlakatimiz budjet siyosatidagi kamchiliklarni bartaraf etishga yordam berishi mumkin.

## **References:**

1. D.V. Skripnik. "Fiskal qoidalar, hukumat samaradorligi va iqtisodiy o'sish." Moskva. "Yangi iqtisodiy assotsiatsiya" jurnali, 2-son (30), bilan. 12–32).
2. A.Kudrin, I.Sokolov, "Byudjet qoidalari muvozanatlashgan byudjet siyosati quroli sifatida", Iqtisodiyot masalalari. 2017. No 11. 5-32-betlar.
3. Shmigol Natalya Sergeevna, "Byudjet qoidalari moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o'sishga erishish vositasi sifatida". "Iqtisodiyot va menejment" jurnali. No-1, 2017 yil, b. 66-74. UDC 336.14(045).
4. Lazaryan S. S., Nikonov I. V., Votinov A. I., Gubkova E. A. Byudjet qoidalarini qo'llashning xalqaro tajribasi: zamonaviy kontseptsiyalarni shakllantirish. Tadqiqot moliya instituti. Moliyaviy jurnal. 2019. No 2. B. 65–80. DOI: 10.31107/2075-1990-2019-2-65-80.